

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga press-tur tashkil etildi

Joriy yil 25-avgust kuni Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur tashkil etildi.



Press-tur doirasida dastlab Institut faoliyatiga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi. Unda Institut faoliyati, bu yerda saqlanayotgan noyob qo'lyozma manbalarning o'rganilishi, restavratsiya va raqamlashtirish ishlari, kadrlar tayyorlash masalalari, shuningdek, Institut "Yosh olimlar" Kengashi tomonidan muntazam o'tkazib kelinayotgan "Bilimkent" ilmiy seminari haqida ham ma'lumot berib o'tildi.





So'ngra press-tur ishtirokchilari restavratsiya va raqamlashtirish ishlari, Institut fondida saqlanayotgan qo'lyozmalar yaqindan tanishdilar.



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti 1943-yil O'zbekiston Davlat xalq kutubxonasi (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Davlat kutubxonasi) ning Sharq bo'limi asosida tashkil topgan va 1950-yilgacha Sharq qo'lyozmalarini o'rganish instituti deb atalgan. 1950-yilda esa Institutda olib borilayotgan ilmiy sohalar qamrovini hisobga olib, Sharqshunoslik instituti deb nomlangan.

Dastlab Institutda Sharq qo'lyozmalarini o'rganishga mo'ljallangan yagona bo'lim mavjud bo'lib, keyinchalik qo'lyozmalarni tasniflash, ilmiy o'rganish va tavsiflash, tadqiq etish va nashrga tayyorlash, shuningdek, Sharq xalqlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini o'rganishga ixtisoslashgan bo'limlar tashkil etildi.

Institutning ilmiy faoliyati asosan bu yerdagi qo'lyozmalar fondi bilan bog'liq. Bu qo'lyozmalar majmuasi ilmiy jihatdan dunyodagi eng yirik va mashhur xazinalaridan biri hisoblanadi. Bu xazinama saqlanayotgan asarlarning ichida eng qadimiysi IX asrga oid (Qur'oni karimning kufiy xati bilan kitobat qilingan nusxasi), eng yangilari esa XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi.

Qo'lyozmalar majmuasidagi asarlar o'zbek, arab, fors, tojik, urdu, pushtu, ozarbayjon, turk, tatar, turkman, uyg'ur va boshqa sharq xalqlari tillarida yozilgan. Mazkur asarlar o'rta asr va undan keyingi davrlar fanining turli tarmoqlariga, ya'ni tarix, adabiyot, falsafa, huquq, falakiyot, kimyo, tabobat, jug'rofiya, dori-shunoslik, til, musiqa, matematika, ma'danshunoslik va boshqa sohalarga oid.

Hozirgi vaqtda qo'lyozmalar xazinasida 26000 jildga yaqin qo'lyozma saqlanmoqda. Ularning ko'pchiligida bir qancha asarlar jamlangan. Toshbosma va nashr etilgan kitoblarning umumiy soni 40000 ga yaqin jildni tashkil etadi. Ular O'rta Osiyo, shuningdek, Sharq mamlakatlari - arab davlatlari, Afg'oniston, Pokiston, Turkiya, Xitoy, Eron, Hindiston tarixini o'rganishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Institutning qo'lyozmalar xazinasida 10 mingga yaqin tarixiy hujjatlar ham saqlanadi.

Fondga ming yillik tarixni qamrab oluvchi tarixiy hujjatlar ham saqlanadi. Ulardan eng qadimiysi X asrga va eng yangilari XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklariga oid arxiv hujjatlari ularning asosiy qismini tashkil etadi. Bu hujjatlarni o'rganish va nashr etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

1952-yildan boshlab Institut xazinasida saqlanayotgan qo'lyozmalar fihristini nashr etish ishlari yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga kelib "O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari to'plami" nomli fihristning 11 jildi va tarix, tabobat, tabiiy fanlar, tasavvufga oid hamda "Sharq miniatyuralari" kataloglari ham nashr etildi. Qo'lyozmalarni kataloglashtirish ishlari davom ettirilmoqda. Institutda yana ilm-fanning buyuk daholari: Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Amir Hisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy qalamlariga mansub asarlar qo'lyozmalarining alohida fihristlari ham chop etilgan.

2000-yilda Institutning qo'lyozmalar xazinasida dunyodagi eng boy qo'lyozmalar majmuasi sifatida YuNESKO Madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yaiada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 24-maydagi 2995-sonli Qaroriga asosan Institut mamlakatimizdagi qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy yozma manbalarni saqlash, o'rganish, ilmiy asosda tadqiq etish va targ'ib qilish bo'yicha yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi.

Institutning Konservatsiya va restavratsiya laboratoriyasida 7 nafar mutaxassislar faoliyat olib boradi. **Bu yerda yiliga 10ga yaqin qo'lyozma va toshbosma kitoblar sahifalari, muqova qismlarini ta'mirlash, ularga maxsus qutilar yasash amaliyotlari bajariladi.**

Bundan tashqari, Institutda Mikrofilmashtirish va skanerlash bo'limi faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Bo'limda 4 nafar mutaxassis faoliyat olib boradi. Xodimlarning yillik me'yori 80 000 kadr qo'lyozma va toshbosma kitoblarning raqamli nusxalarini tayyorlashdan iborat. Jumladan, **2017-2021-yillar davomida**

jami 1014 ta qo'lyozma raqamlashtirilgan bo'lib, u 314 305 ta kadrni tashkil etadi.